

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH BOSQICHLARI VA UNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TA'SIRI

Sharipova Nilufar

Termiz davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi"
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
E-mail: mansurovnaa02@gmail.com

Xujanqulova Nargiza

Termiz davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi"
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Tel: 998-99-555-84-64

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18333678>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 y. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bo'yicha olib borilgan islohotlar hamda MHXSni joriy etish asoslari tartib bilan ifodalangan. Shuningdek olib borilayotgan amaliy ishlar bo'yicha misollar bilan boyitilgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: MHXS, Normativ huquqiy baza, malakali kadrlar tayyorlash, metadalogik dasturiy ta'minoti, moliyaviy hisobotlar sifatini nazorot qilish, MHXS bo'yicha o'qitish va imtihon xarajatlarini qoplash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 y. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori MHXSni joriy qilishga qaratilgan bo'lib buxgalteriya sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Shuningdek MHXS ni joriy qilish asoslari quyidagi boshqichlar bilan amalga oshirildi:

- Normativ huquqiy baza
- Malakali kadrlar tayyorlash
- Metadalogik dasturiy taminoti
- Moliyaviy hisobotlar sifatini nazorot qilish

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzishning normativ huquqiy asoslari

- Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi qonuni)
- Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni)
- MHXSga otish bo'yicha qoshimcha chora tadbirlar to'g'risida (O'zbekiston Respublikasiprizdentining 24/02/2020 PQ 4611 sonli qarori)

- Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi prezidentining 24/04/2015 PF4720 sonli farmoni)
- MHXS va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori)
- O'zbekiston Respublikasi xududida qo'llash uchun MHXS va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirlining buyrug'i)

Keyingi bosqichda malakali kadrlar tayyorlash uchun olib borilayotgan ishlarni ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 y. PQ-4611-son qarori bilan ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan xolda MHXSni va mazkur soxada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma bosqich joriy etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"

Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora tadbirlar

Vazirlar mahkamasining "MHXS o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida" 26.01.2021 yildagi 38-sonli qarori.

Nizom:

- MHXS bo'yicha o'qitish;
- «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot», «Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR ACCA)» kurslari va boshqalar) imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibini belgilaydi. Nizom 2025 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

MHXS o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari ,OTMning «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo'yicha pedagog kadrlari, OTMning talabalari hamda bitiruvchilari (oliy ta'lim muassasasini tugatgandan so'ng 6 oy davomida), davlat organlari xodimlariga qoplab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 y. PQ-4611-son qaroriga asosan MHXS asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilanishi lozim:

1. MHXSni joriy etish va MHXS sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish;

2. Buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar (ASSA va boshqalar) bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish;

3. Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va xalqaro buxgalter sertifikatlari ro'yxatini belgilaydi

1. Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, davlat ulushi bo'lgan tegishli xo'jalik jamiyatlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi;

2. 2021 yil yakuniga qadar buxgalteriya hisobi xizmatini, buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida tegishli sertifikatga ega bo'lgan kamida uch nafar mutaxassis bilan ta'minlashi lozim.

1. «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo'yicha MHXS va AXSni chuqur o'rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o'quv dasturlarini joriy etish;

2. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar akkreditatsiyasidan o'tkazish;

3. «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo'yicha pedagog xodimlarni akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlarida MHXS bo'yicha o'qitish. Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakolatli organ

MHXS O'zbekistonda joriy etish uchun ko'plab amaliy ishlar olib borildi
Masalan quyida bir nechtasini keltirib o'tamiz:

- MHXSni o'zbek tilidagi ahamiyatini yanada oshirish uchun Vazirlik xodimlari, amaliyotchi ekspertlar bilan birgalikda MHXS hujjatlarining mazmun mohiyatini yoritib berishga bag'ishlangan 28 ta bepul onlayn vebinarlar o'tkazildi¹

- O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun 62 ta MHXS davlat tiliga tarjima qilinib tan olindi.(ro'yxat raqami 3400, 09,12.2022.)

- Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan MHXS fondi o'rtasida "2045 Uz MOF OPEN licence with translation 2020" nomli shartnom imzolandi (11.11.2020).

- Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan sertifikatlangan diplomli buxgalterlar assotsatsiyasi (ACCA Buyuk Britaniya) o'rtasida 30.07.2020. yilda o'zaro anglashuv memorandum imzolandi.

¹ Манба: https://www.youtube.com/channel/UCd_UAH2n3fNXk0nBi2gvZfA/videos

- 19ta o'quv markazi ACCA xalqaro akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tdi.
- IFRS.ACADEMY va PROFIMSFO.UZ tinglovchilari 13000 nafarni tashkil etdi. Bular talabalar, o'qituvchilar, buxgalterlar va moliyachilar ekanligi yaqqol misoldir.
- 2021-2024 yillar MHXS bo'yicha 1597 nafar tinglovchiga o'qitish uchun 5.704.500 ming so'm va 1352 nafar talabgorga imtihon uchun 2.224.800 ming so'm xarajatlarini qopladi.

Xulosa qilib aytganda MHXSni joriy etish jarayonida tashkilotlar keltirilgan imkoniyatlarga ega buladi.

✓ MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tashkilotlar buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi;

✓ 1-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" MHXSga (09.12.2022 yil, r/r.3400, 27-ilova) muvofiq tashkilot MHXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi kirish hisobotini MHXSga o'tish sanasiga tayyorlashi lozim va bu sana MHXSga muvofiq hisob yuritishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Shuningdek, MHXSga o'tish sanasi tashkilot o'zining MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotida MHXSga muvofiq to'liq qiyoslanuvchan ma'lumotlarni taqdim qiladigan eng oldingi davrning boshi hisoblanadi.

✓ MHXS asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami 1-son "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" BHXSda (09.12.2022 yil, r/r. 3400, 2-ilova) belgilangan bo'lib, shuningdek, mazkur standartda moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan umumiy talablar belgilangan, unga ko'ra tashkilot moliyaviy hisobotning (jumladan qiyosiy ma'lumotni) to'liq to'plamini kamida yillik asosda, minimal qiyosiy ma'lumot sifatida barcha moliyaviy hisobotlardan 2 tadan taqdim etishi lozim.

Yuqoridagilar tufayli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. MHXSni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatishmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining tan olinishi va ko'proq ishlatilishini isbotlovchi eng muhim voqealardan biri bu - qimmatbaho qog'ozlar va birjalar bo'yicha Kommissiyalarning xalqaro tashkiloti tomonidan xorijiy kotirivkalar uchun MHXS asos qilib olinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 y. PQ-4611-son qarori

2. Vazirlar mahkamasining “MHXS o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xaraajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida” 26.01.2021 yildagi 38-sonli qarori.
3. Otabek Barakayev, PhD O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig‘i O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida tayyorlagan taqdimoti
4. O‘zbekiston Respublikasi prizdentining 24/04/2015 PF4720 sonli farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirlining buyrug‘i
6. Mackenzie, B., Coetsee, D., Njikizana, T., Selbst, R., Chamboko, R., & Colyvas, B. (2022). Wiley IFRS 2022: Interpretation and Application of IFRS Standards. Wiley.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

